

**SAYLOV JARAYONLARIDA OMMAVIY AXBOROT
VOSITALARI FAOLIYATINING XALQARO VA MILLIY TAJRIBASI**

Ashurov Alisher G'ulom o'g'li

Toshkent davlat yuridik universiteti magistranti

Annotatsiya: mazkur tezisdagi saylov jarayonlarida ommaviy axborot vositalarining ishtiroki va huquqiy maqomi O'zbekiston Respublikasi va Germaniya tajribasi misolida qiyosiy-huquqiy tahlil qilinadi. O'zbekiston Saylov kodeksining tegishli moddalari asosida mamlakatimizda tashviqot jarayonining huquqiy tartibga solinishi, OAVga beriladigan vakolatlar va teng sharoitlar masalalari ko'rib chiqilgan. Germaniyada esa saylovoldi tashviqotida ommaviy axborot vositalarining mustaqilligi, davlat va nodavlat OAVlarda adolatli e'fir taqsimoti, shuningdek so'z erkinligi prinsiplariga tayanilgan tartiblar tahlil qilinadi. Har ikki davlat qonunchiligining o'ziga xos jihatlari aniqlanadi, ularning kuchli va zaif tomonlari taqqoslab baholanadi. Tezisdagi O'zbekiston tajribasini takomillashtirish uchun Germaniya modelining ba'zi elementlarini joriy etish bo'yicha tavsiyalar ham berilgan.

Kalit so'zlar: saylov jarayoni, tashviqot, tenglik prinsipi, e'fir vaqti, Germaniya saylov qonunchiligi, O'zbekiston Saylov kodeksi, so'z erkinligi, jurnalist vakolatlari.

**МЕЖДУНАРОДНЫЙ И НАЦИОНАЛЬНЫЙ ОПЫТ
ДЕЯТЕЛЬНОСТИ СРЕДСТВ МАССОВОЙ ИНФОРМАЦИИ В
ИЗБИРАТЕЛЬНЫХ ПРОЦЕССАХ**

Ашуров Алишер Гулом угли

Магистрант Ташкентского государственного юридического университета

Аннотация: в диссертации проводится сравнительно-правовой анализ участия и правового положения средств массовой информации в избирательных процессах на примере опыта Республики Узбекистан и Германии. Вопросы правового регулирования агитационного процесса в нашей стране, полномочия, предоставляемые средствам массовой информации, и равные условия были рассмотрены на основе соответствующих статей Избирательного кодекса Узбекистана. В Германии избирательная кампания будет анализироваться на основе принципов независимости СМИ, справедливого распределения эфирного времени в государственных и негосударственных СМИ, а также свободы слова. Выявляются специфические аспекты законодательства обеих стран, сравниваются и оцениваются их сильные и слабые стороны. В диссертации также даны рекомендации по внедрению некоторых элементов немецкой модели для улучшения узбекского опыта.

Ключевые слова: избирательный процесс, агитация, принцип равенства, эфирное время, избирательное законодательство Германии, Избирательный кодекс Узбекистана, свобода слова, журналистские полномочия.

INTERNATIONAL AND NATIONAL EXPERIENCE OF THE ACTIVITY OF THE MASS MEDIA IN ELECTION PROCESSES

Ashurov Alisher Gulom ugli

Master's student of Tashkent State University of Law

Abstract: *this thesis provides a comparative legal analysis of the participation and legal status of the mass media in election processes using the experience of the Republic of Uzbekistan and Germany. Based on the relevant articles of the Election Code of Uzbekistan, the legal regulation of the campaign process in our country, the issues of powers granted to the media and equal conditions are considered. In Germany, the procedures based on the principles of independence of the media, fair distribution of airtime in state and non-state media, as well as freedom of speech in election campaigning are analyzed. The specific aspects of the legislation of both countries are identified, and their strengths and weaknesses are compared and evaluated. The thesis also provides recommendations for the introduction of some elements of the German model to improve the experience of Uzbekistan.*

Keywords: *electoral process, campaigning, principle of equality, airtime, German electoral legislation, Uzbekistan Electoral Code, freedom of speech, journalistic powers.*

Demokratik jamiyatlarda saylovlar fuqarolarning siyosiy irodasini erkin ifoda etishining eng asosiy vositasi hisoblanadi. Saylov jarayonining oshkoraligi, adolatlilik va ishonchliligi esa ko'p jihatdan ommaviy axborot vositalarining faoliyatiga bog'liq. Chunki aynan OAV saylovchilarni siyosiy partiyalar va nomzodlarning dasturi, ularning faoliyati va saylovoldi pozitsiyasi bilan tanishtiradi, muqobil fikrlar muhokamasiga maydon yaratadi hamda saylovchilarning xabardor holda tanlov qilishiga xizmat qiladi. Shu bois, saylov jarayonlarida OAVning erkin, mustaqil va qonuniy faoliyat yuritishini ta'minlash demokratik saylovlarning ajralmas tarkibiy qismi sanaladi. Saylovoldi tashviqoti

davrida OAV faoliyati bilan bog'liq muhim prinsiplar — bu axborotning erkin tarqatilishi, nomzodlar va siyosiy partiyalar uchun teng shart-sharoitlar yaratilishi, shuningdek, noto'g'ri yoki bo'hton ma'lumotlarning tarqalishining oldi olinishi kabi tamoyillardir. Bunday tamoyillar nafaqat adolatli siyosiy raqobatni ta'minlaydi, balki saylovchilar ongiga manipulyativ ta'sir o'tkazilishining oldini olishga yordam beradi. Shu jihatdan, tashviqot erkinligini huquqiy jihatdan aniq belgilash va uni qonun doirasida nazorat qilish zarur.

O'zbekiston Respublikasida saylovoldi tashviqotini olib borish tartibi Saylov kodeksining 44–48-moddalarida batafsil tartibga solingan bo'lib, unda ommaviy axborot vositalarining (OAV) o'rni alohida e'tirof etiladi. 44-modda tashviqotni saylov kampaniyasi davrida amalga oshiriladigan va saylovchilarni nomzod yoki siyosiy partiya foydasiga ovoz berishga undovchi faoliyat sifatida belgilaydi. Ushbu faoliyat faqat ro'yxatga olingan nomzodlar, ularning ishonchli vakillari va siyosiy partiyalar tomonidan amalga oshirilishi mumkin. Shuningdek, tashviqotda noto'g'ri axborot tarqatish, shaxsiy hayotga aralashish yoki nomzod sha'ni va qadr-qimmatiga putur yetkazadigan ma'lumotlar berish qat'iy man etilgan [1; 44-mod.].

“Saylovda teng raqobat muhitini shakllantirishda OAV orqali olib boriladigan tashviqot muhim ahamiyatga ega”, deb yozadi Denis Makquail [2; B.25.]. Saylov kodeksining 46-modda davlat ommaviy axborot vositalarida nomzodlarga teng efir vaqti va nashr maydonini bepul taqdim etish tartibini belgilaydi. Richard Ganter ham bunda siyosiy partiyalarning fikri inobatga olinib, tegishli saylov komissiyasi tomonidan tashviqotga ajratiladigan vaqt va hajm belgilanishini muhim element sifatida ko'radi [3; B.65.]. Nodavlat OAVda esa bu

faoliyat pullik asosda yoki qonunchilikka muvofiq amalga oshiriladi. Muhimi, har qanday shartlar barcha nomzodlar uchun teng va bir xil bo'lishi talab qilinadi [1; 46-mod.].

O'zbekiston Saylov kodeksining 35-moddasida OAV vakillarining saylov jarayonidagi ishtiroki kafolatlanadi. Unga ko'ra, jurnalistlar saylovga tayyorgarlik ko'rish va o'tkazish bilan bog'liq barcha tadbirlarda, shu jumladan saylov kuni ovoz berish binolarida va hatto ovozlarni sanash vaqtida ham hozir bo'lish huquqiga egadir. Ularning ushbu huquqi Markaziy yoki hududiy saylov komissiyalari tomonidan beriladigan rasmiy akkreditatsiya bilan tasdiqlanishi lozim. Bu esa oshkoralik prinsipining amalda qo'llanilishini ta'minlaydi [1; 35-mod.].

Saylov komissiyalari tizimi va ularning faoliyati ham OAV bilan bevosita bog'liqdir. 11-modda saylov komissiyalarining faoliyati har qanday tashqi aralashuvlardan mustaqil bo'lishini kafolatlaydi. Shu bilan birga, saylov komissiyalarining ochiq va oshkora ishlashi ularning yig'ilishlarida jurnalistlar ishtirokini ham nazarda tutadi. Bu orqali saylov jarayoni ustidan jamoatchilik nazorati kuchayadi [1; 11-mod.]. Saylov natijalari esa 97-modda asosida saylovdan keyin o'n kundan kechiktirmay matbuot va OAVda hammaga e'lon qilinadi, bu esa fuqarolarning xabardorlik darajasini oshiradi va saylov jarayoniga ishonchni mustahkamlaydi [1; 97-mod.].

Xulosa qilib aytganda, O'zbekiston Saylov kodeksi OAVni saylov jarayonining muhim subyekti sifatida tan oladi. Tashviqotda tenglik, shaffoflik va erkinlik tamoyillarini amalga oshirishda OAV faoliyatiga keng huquqiy zamin

yaratilgan bo'lib, bu saylovchilarning xabardorlik darajasini oshirishga xizmat qiladi. Umuman olganda, solishtirish orqali biz ayrim ilmiy natijalarni olishimiz mumkin. Masalan, qisman o'xshash bo'lgan, O'zbekiston va Germaniyadagi tartib tamoyillarni ayish mumkin.

Germaniya Federativ Respublikasida saylovlar axborot erkinligi va ommaviy axborot vositalarining betarafligi tamoyillariga asoslangan holda tashkil etiladi. Asosiy qonunning (Grundgesetz) 5-moddasi so'z erkinligi, axborot olish erkinligi va matbuot erkinligini kafolatlaydi [4; 5-mod.]. Mazkur norma orqali OAV saylov kampaniyasi davrida siyosiy subyektlar haqida xolis axborot berish, nomzodlarning faoliyatini ochiqlik asosida yoritish va fuqarolarning siyosiy xabardorligini ta'minlash bo'yicha konstitutsiyaviy huquqiy asosga ega bo'ladi.

Germaniyada federal darajadagi televideniye va radio faoliyatini tartibga soluvchi hujjat — “Staatsvertrag für Rundfunk und Telemedien” (Radio va Telemediya to'g'risidagi davlatlararo shartnoma) hisoblanadi. Unda ommaviy axborot vositalarining saylov kampaniyasi davridagi betaraflilik, siyosiy muvozanat va barcha siyosiy kuchlarga teng imkoniyatlar yaratish majburiyati mustahkamlab qo'yilgan [5]. Ayniqsa, davlat ommaviy axborot vositalari, xususan ARD va ZDF kabi yirik efir xizmatlari, saylovoldi kampaniyalarini yoritishda hech bir siyosiy partiyaga nisbatan afzal ko'rishsiz harakat qilishi shart. Bu yondashuv jurnalistika etikasi va davlat OAVining ishonchliligini saqlab qolish bilan bevosita bog'liqdir. Shuningdek, Germaniyaning “Bundeswahlgesetz” (Federal saylov to'g'risidagi qonun)da saylov jarayonida adolat va tenglik prinsiplariga qat'iy amal qilish talabi belgilangan. Ushbu qonunga binoan, nomzodlar va partiyalar o'z tashviqotlarini olib borishda bir xil shart-sharoitlarga ega bo'lishi lozim. OAVlar, ayniqsa,

davlatga qarashli teleradiokanallar efir vaqtini siyosiy partiyalar o'rtasida aholi qo'lloviga qarab adolatli va proporsional taqsimlashi kerak.

Germaniya va O'zbekiston saylov qonunchiligida ommaviy axborot vositalarining (OAV) ishtiroki va saylovoldi tashviqoti masalalari demokratik tamoyillarga tayanadi. Har ikki davlat qonunchiligida davlat ommaviy axborot vositalarida nomzodlarga teng efir vaqti va nashr maydoni ajratilishi asosiy prinsip sifatida belgilangan. O'zbekistonda bu tamoyil Saylov kodeksining 46-moddasida huquqiy mustahkamlangan bo'lsa, Germaniyada u "Staatsvertrag für Rundfunk und Telemedien" va "Bundeswahlgesetz" orqali nazorat qilinadi. Bu ikkala modelda ham saylovchilarni xolis va muvozanatli axborot bilan ta'minlash asosiy maqsad qilib qo'yilgan.

Shu bilan birga, Germaniya tajribasida OAVning nisbatan mustaqil maqomi va fuqaro jamiyatining siyosiy jarayonlarga faol ta'siri sezilarli. Masalan, Germaniyada davlat OAVlari mustaqil kengashlar nazorati ostida faoliyat yuritadi va ular siyosiy partiyalardan moliyaviy jihatdan to'liq mustaqil. O'zbekistonda esa davlat OAVlari, ayniqsa saylov davrida, siyosiy tarafkashlikdan holi bo'lishi talab qilinsada, ularning faoliyati ko'pincha hukumat siyosati bilan uyg'unlashgan tarzda yuritiladi. Bu esa jurnalistik betaraflik prinsipining amaliyotdagi qo'llanish darajasini cheklashi mumkin. O'zbekiston Saylov kodeksining 44–48-moddalarida tashviqot shakllari, vositalari va taqiqlari batafsil tartibga solingan. Germaniya qonunchiligida esa tashviqotga doir qoidalar umumiy prinsiplar asosida belgilangan bo'lib, OAVga ijodiy va tashkiliy jihatdan erkinlik beriladi. Bu farq milliy konstitutsiyaviy tartibot va siyosiy madaniyat darajasi bilan izohlanadi.

Amaliy jihatdan esa, Germaniyada saylov kampaniyalari ko'pincha partiyalarning o'z mablag'lari hisobidan moliyalashtiriladi va moliyaviy hisobotlar jamoatchilikka ochiq holda taqdim etiladi. O'zbekistonda esa saylov kampaniyalariga ajratiladigan byudjet mablag'lari saylov komissiyalari orqali adolatli taqsimlanadi, ammo bu mablag'larning sarflanishi ustidan mustaqil monitoring mexanizmlari cheklangan.

Jurnalistlar huquqlari ham muhim farqlardan biridir. Germaniyada jurnalistlar mustaqil akkreditatsiyadan o'tgan holda barcha saylov jarayonlarini erkin yoritishi mumkin. O'zbekistonda esa bu huquq Saylov kodeksining 35-moddasi orqali kafolatlangan bo'lsa-da, amaliyotda ayrim holatlarda cheklovlarga duch kelinadi [1; 35-mod.]. Shuningdek, Germaniyada soxta axborotga qarshi kurash mustaqil faktcheking platformalari va fuqarolik tashabbuslari orqali amalga oshiriladi, O'zbekistonda esa bu yo'nalishdagi huquqiy mexanizmlar hali shakllanish bosqichidadir.

Qiyosiy tahlil shuni ko'rsatadiki, O'zbekiston OAVning saylovlardagi ishtirokini huquqiy jihatdan to'liq belgilab bergan bo'lsa-da, amaliy jihatdan Germaniyadagi kabi mustaqil, erkin va professional jurnalistika muhitini shakllantirish yo'lida hali qat'iy qadamlar tashlashi lozim. Kelgusida O'zbekistonda ham OAVning saylovlardagi rolini mustahkamlash uchun jurnalistlarning erkin faoliyat yuritishiga, raqamli tashviqot vositalarining adolatli qo'llanishiga va moliyalashtirishdagi ochiqlikka doir yondashuvlar chuqur takomillashtirilishi kerak.

Xulosalaydigan bo'lsak, O'zbekiston va Germaniya tajribasi shuni ko'rsatadiki, saylov jarayonlarida ommaviy axborot vositalari hal qiluvchi rol o'ynaydi. Har ikki davlat qonunchiligi OAVning erkinligi, xolisligi va nomzodlar uchun teng sharoitlar yaratishni kafolatlashga intiladi. Germaniyada bu prinsiplar amaliyotda chuqurroq qaror topgan bo'lsa-da, O'zbekistonda ham saylov kodeksida tashviqot tartibi batafsil belgilangan. Kelgusida O'zbekistonda OAVning mustaqilligini mustahkamlash, jurnalistlar uchun huquqiy kafolatlarni kuchaytirish va raqamli tashviqot vositalaridan adolatli foydalanish orqali saylovlarning shaffofligini yanada oshirish mumkin. Bu esa demokratik qadriyatlarning mustahkamlanishiga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Saylov kodeksi. <https://lex.uz/en/docs/-4386848>.
2. McQuail, Denis. McQuail's Mass Communication Theory. 6th ed., Sage Publications, 2010.
3. Gunther, Richard, José Ramón Montero, and Hans-Jürgen Puhle. Democracy, Intermediation, and Voting on Four Continents: Political Information and Interest Representation in Western Democracies. Oxford University Press, 2007.
4. Grundgesetz für die Bundesrepublik Deutschland (GG) [Asosiy Qonun]. Bundesministerium der Justiz, 1949. <https://www.gesetze-im-internet.de/gg/>.
5. Staatsvertrag für Rundfunk und Telemedien. Medienanstalten, 2020. <https://www.rundfunkkommission.de>.